



AMIR TEMUR – ADOLAT VA QUDRAT TIMSOLI

G'ayrat Madiyarovich Madaminov

UzMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi front orti va
moliyaviy ta'minot sikli boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10690999>

ARTICLE INFO

Received: 14th February 2024

Accepted: 21th February 2024

Online: 22th February 2024

KEYWORDS

Amir Temur, davlat, qonun,
siyosat, Sohibqiron, jang.

ABSTRACT

Barchamizga ma'lumki, tarixsiz kelajagik bo'lmaydi. Shunday go'zal zaminimizning bu yorug' va farovon kunlariga sababchi bo'lgan buyuk bobokalonlarimiz bor. Tarixdagi eng buyuk adolat va qudrat timsoli bo'lmish Amir Temur bobomiz tarixini qanchalar ko'p o'rgansak shunchalar kamdir.

Kirish: Uzoq o'tmishdan ma'lumki, o'zbek xalqiga alloh nazari tushgan jannatga qiyos etgulik ro'yi-zamin berilganki, bunaqasi butun yer yuzida kam uchraydi. Jannatmakon go'shamizda qish, bahor, yoz va kuzdan iborat to'rt faslni bir yilning o'zida ko'rish mumkin. Bu degani shu jannatmakon o'lkada istiqomat qilayotgan aholimizning hayot faravonligini ta'minlaydi. Jahonda shunday mamlakatlar borki, yil mobaynida issiqlik hukm surishidan qish va bahorni ajratolmaysiz yoki sovuqlik va salqinlik gashtini surolmaysiz. Allo nazari tushgan yurtimizda esa o'zining ajoyib iqlimi, serquyoshligi, musaffo havosi, zilol suvlari, unumdor yerlari, totli bog'dorchilik va polizchilik mahsulotlari, oltin, kumush, mis va boshqa boyliklari bilan nom qozongan. Amir Temur bobomiz buyuk tarixiy shaxs o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir. Tarixiy kitoblarda Temur bobomizni Temurlang, Chet el adabiyotlarida Temurlan nomlari bilan tariflangan. Amir Temurning onasi Takinaxotun buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo'lgan Ubaydulla ibn Mas'udning avlodi bo'lgan. Temur bobomizning otasi barlos ulug'idan bo'lib, Chig'atoy xalqining taniqli beklari bo'lgan. Bobokalonimiz Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan, uzoqni ko'ruvchi buyuk davlat arbobi edi.

Tarixidan ma'lumki, barcha jabhada adolatni ustun bilgan podshohlar tarixiga qiziqish hamisha katta bo'lgan. Ana shunday zotlardan biri buyuk bunyodkor, ilm-fan homiysi, yuksak vatanparvar o'zi barpo etgan ulug' saltanatni Temur tuzuklaridek odilona qonunlari bilan mustahkamlagan adolatli hukmdor, yengilmas sarkarda Amir Temurdir bobomizdir. U hukmronligi davridayoq sharqni chingiziyalar, Yevropani Usmoniylar asoratidan asrab qolgan qahramon sifatida o'z yaratilgan kitoblarda e'tirof etiladi.

Ma'lumki, odatda u yoki bu hukmdorning aql-idroki, fe'latvori, bilimi va dunyoqarashiga monand ravishda uning faoliyati shakllanadi. Buni Amir Temur misolida ham ko'rish mumkin. Temur bobomiz mard, adolatli, tadbirkor, xalq faravonligi uchun o'zini fido qilib, qudratli saltanat qurdi.



Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u "Temur tuzuklari" nomi ostida nom qozondi. Ushbu asar Temur bobomizning o'zlari yozib qoldirgan asar hisoblanadi. Asarda davlatni qanday boshqarish, mansabga kimni tayinlash, sipohlarning ish haqlari, mansabdor shaxslarning etiborga molik xizmatlarini yuksak darajada baholash va boshqa qonun qoidalar bayon etiladi. Amir Temur eron, arab, turk kabi xalqlarning tilini bilgan. Ushbu bilimlari orqali jahonda o'zining tengsiz izini qoldirgan. Ko'plab bilimlarni egallagan. Davlat boshqaruvida o'zing etiborga loyiq ishlarni amalga oshirgan. Amir Temur hayotligi chog'ida saltanatni asosan to'rt qismga bo'lib, o'g'il, nabiralarga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armoniston Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan. Temur bobomizning saltanati o'ziga xos qoidalarga asoslangan holda boshqarilgan. Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz o'zining yuksak idroki bilan saltanatni boshqargan. Bobomiz yaratgan saltanat Xuroson va Movarounnahrda XVI asrda bo'lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan. Temur bobomizning piri imom Sayyid Barakani edi. Piri Sayyid Baraka bobomizning qilich bilan nimaniki qo'lga kiritgan bo'lsa, shularga ibodat va fatvo berib, o'zing duolarida mustahkamlagan.

Amir Temurning harbiy yurishlari sababi va maqsadi xolisona tahlil qilinmay qattaq qoralash hukm surgan edi. Yaqin vaqtlargacha O'zbekistonga Qur'oni karimning asl nusxasi kim tomonidan, qachon va qayerdan keltirilgani noma'lum edi. Bu masalaga ham aniqlik kiritilib, uni Amir Temur Oltin O'rdadan olib kelgani bayon qilindi. Temuriylar davlatining zaiflashishi va shayboniylar tomonidan bosib olinishi, xonliklar davrida taraqqiyot barbod qilinishi va o'lkaning inqirozga muhtal bo'lishiga doir masalalar ham ko'rildi.

Xulosa qilib aytganda, Buyuk sarkarda, Amir Temur milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki yurt obodonchiligi va xalq farovonligi yo'lida bor kuch-mehnatini safarbar etgan buyuk sarkarda, adolatli hukmdor sifatida qoladi.

References:

1. Azimov E. Amir Temur saltanati. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti,1996. 88 b;
2. Muhammadjonov A., Temur va temuriylar saltanati "Tarixiy ocherk", T., 1994;
3. Obid Tangriyev- "Temur tuzuklari" da Sohibqiron fazilatlarini. Xidoyat jurnali-2011;
4. Bo'riboy Ahmedov- "Amir Temur darslari". Toshkent-2001